

## INTERAKTIV O'YINLAR ORQALI TALABALAR VA O'QUVCHILARNING TIL BILISH QOBILIYATINI OSHIRISHNING AFZALLIKLARI

Bahoroy Yo'lliyeva

*O'zDJTU Ingliz filologiyasi Fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sinfdagi talabalar va o`quvchilar uchun jamoaviy ishlashtiruvchi afzalliklari tahlil qilingan. Ularning o`qish jarayonini jamoaviy ishlar tashkil qilish orqali yaxshilash masalalari keng yoritilgan. Talabalarning jamoaviy ishlarini tezlashtiradigan yangi usullar va metodlar sinab ko`rildi hamda maqola orqali talabalarning oldingi va keyingi natijalari qiyoslandi.

**Kalit so‘zlar:** Jamoaviy ish, dinamika, individual, resurs, integratsiya, virtual, BTOS

**Kirish:** Talabalarning birgalikda vazifani bajarishga kirishgan ish jarayoni jamoaviy ish deb nomlanadi. Asosan, ular jamoa a’zolari bilan bir xil maqsadga erishishga intilishadi. Har bir jamoaning o’ziga xos dinamikasi mavjud va bunga sportdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, futbol o‘yinida barcha o‘n bir o‘yinchi raqibni yengish uchun ko‘proq gol urishga harakat qiladi. Ammo har bir o‘yinchining o‘z vazifalari bor. Xuddi shunday, talabalar va o`quvchilarning jamoaviy loyihalari ham oddiy sinfda o‘tiladigan darslarga nisbatan ko‘plab afzalliklarga ega. Yagona maqsadga erishishga intilayotgan talabalar yuqori natjalarga erishadi va ularning ko‘rsatkichlari individual natijalardan ustun bo‘ladi. Garchi jamoaviy ishning juda ko‘p afzalliklari borligi haqiqat bo‘lsa-da, ba’zida kerakli natijaga erisha olmaymiz, chunki jamoaviy ish to‘g’ri mezonlarga ko‘ra amalga oshirilmagan bo‘ladi. Talabalarning jamoaviy ishlashtiruvchi qobiliyatini oshirish uchun bir nechta usullar mavjud. Dastavval, ularni “guruh” emas, “jamoa” deb atash samaraliroq hisoblanadi. Chunki guruh o‘zining shaxsiy sa’y-harakatlarini muvofiqlashtiradigan odamlarni anglatadi, jamoa esa umumiyligi maqsadga ega bo‘lib, muvaffaqiyat uchun birgalikda javobgar hisoblanadi. Shuningdek, jamoaga nom berish ham jamoa sifatida o‘ylashning dastlabki bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Jamoani va uning nomini shakllantirgandan so‘ng, ularga quyidagi rollarni belgilash muvofiqdir:

**Jamoa yetakchisi** (jamoani muvofiqlashtirish va vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga asoslangan holda faoliyatlarni taqsimlash uchun) **Jamoa vakili** (jamoa yig‘ilishlarini rejalashtirish, har bir sessiya uchun kun tartibini tuzish va kelishuvlarni qayd etish, shuningdek, keyingi samarali aloqa uchun jamoani xabardor qilish). Sifat nazorati (loyiha yoki vazifa talablarini ko‘rib chiqish, ularni jamoaga yetkazish va ular bajarilganligini ta’minlash uchun javobgar). Shuningdek, talabalar orasida tabiiy qobiliyat yoki jamoa ichidagi rollarni aniqlash lozim, masalan, “muvoqiflashtiruvchi”, “shakllantiruvchi” va “resurs izlovchi”. Har bir kishining noyob ko‘nikmalari borligini anglash juda muhim, chunki bu jamoaviy ishni yanada boy va qimmatli qiladi. Har bir kishining kuchli tomonlaridan foydalaniib, umumiyligi maqsadlarga

erishish uchun ularni qanday maksimal darajada ishlatalishni jamoalarga o'rgatish zarur. Loyihaning oxiriga kelib, talabalar hech bo'limganda o'zlarining kuchli tomonlarini va jamoa ichida ularni qanday maksimal darajada ishlatalishni anglab yetishi lozim. Har bir jamoada turli ko'nikmalarga ega bo'lgan a'zolar bo'lishi kerak. Jamoani tuzib bo'lgach, ularni bir-birlarini yaxshiroq tanib olish va jamoa integratsiyasini kuchaytirish uchun mashg'ulot o'tkazish tavsiya etiladi. Yaxshi va sinalgan usullardan biri – talabalarga o'z xarakterlari, xususiyatlari, qobiliyatları, muhim yutuqlari va darsdan tashqari faoliyatlarini ko'rsatuvchi portfolio yaratishni so'rashdir. Talabalar o'z jamoasini boshqarish uchun qoidalarni belgilab olishlari kerak va barchasi bunga rozi bo'lishlari kerak. Ular, shuningdek, bir-birini baholashlari va guruh a'zolarining ishlariga fikr-mulohazalar bildirishlari lozim. Buning uchun "Teammates" kabi platformadan foydalanishlari mumkin, bunda talabalar o'z guruh a'zolari tomonidan bajarilgan ish haqida son va sifat jihatdan savollarga javob berishlari mumkin. Muvaffaqiyatli jamoalar o'z dinamikasida farqlarga ega, lekin ko'pincha asosiy xususiyatlarni namoyon bo'ladi. Jamoa a'zolari odatda o'z rolining vazifalarini yaxshi tushunishi va ularni jamoa faoliyatida yaxshi bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari kerak. Bundan tashqari, jamoa dinamikasi va mas'uliyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish bilan bir qatorda, muvaffaqiyatli jamoa a'zolari quyidagi xususiyatlarni ko'rsatadi: Aniq aloqa: Agar jamoa a'zolari o'z fikrlarini, g'oyalarini va muhim yangiliklarini yetkazsa, boshqa a'zolar jamoaning muvaffaqiyati uchun kerakli o'zgarishlarni amalga oshirishlari mumkin. Halollik va oshkorlik: Jamoa a'zolari har qanday xavotir va qiyinchiliklar haqida jamoani xabardor qilishlari orqali o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashlari mumkin. Faol tinglash: Jamoa a'zolarining fikr va mulohazalarini ochiq tinglash va hisobga olish jamoaning samarali ishlashiga yordam beradi. Mas'uliyat va vaqtini boshqarish: Har bir jamoa a'zosi o'z vazifalarini bajarishga tayyor bo'lishi va rejalangan o'zgarishlarni o'z vaqtida xabar qilishi kerak. Moslashuvchanlik: Ko'p jamoalar maqsad sari harakat qilgan sari o'z dinamikasi va individual vazifalarini o'zgartiradi. Muvaffaqiyatli jamoa a'zolari bu narsani har bir a'zoning kuchli tomonini va jamoaning umumiy maqsadini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiradi. Shuningdek, jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat bo'lishi kerak. Hurmat jamoa a'zolariga qanday muomala qilish, ularning hissalariga qanday munosabatda bo'lish va a'zolarning o'zlarini amalga oshirayotgan ishlariga o'zlarini mustaqil qaror qabul qilishiga imkon berish bilan namoyon bo'ladi. Hurmat ko'rsatilgan jamoa a'zolari o'z guruhiyaliga ko'proq sodiq bo'lishadi va jamoaning maqsadga erishishi osonlashadi. Jamoada ijobjiy muhit yaratish hamkorlikni oshirish hamda ishonchli va oshkora muhit yaratishning kaliti hisoblanadi. Rag'batlantirish va kichik yutuqlarni nishonlash ham jamoa a'zolariga motivatsiya bo'lishi mumkin. Biz yangi so'rovnoma - BTOS (talabalar jamoaviy ishini yaxshilash) ni sinab ko'rdik. Universitetdagi 16 talabandan iborat guruhi tanlab, ulardan 8 tasini jamoa bo'lib taqdimot qilishga va boshqa 8 tasini yakka tartibda bajarishga undadik. Guruhi ushbu maqoladagi ko'rsatmalar bilan tanishtirdik va ular darhol o'zlariga nom topishdi. Ularga vazifani tayyorlash uchun 2 kun berdik. Qiyoslaganimizda guruh ishi yakka tartibdagi talabalarning ishidan sezilarli

darajada farq katta edi. Taqdimot juda ijodiy bo‘lib, ular o‘z nutqlarini birin-ketin mukammal tarzda bajardilar. Bundan tashqari, ular faqat taqdimot emas, balki qolgan 8 nafar talabalar uchun o‘yinlar va topshiriqlar ham tayyorladilar. Bu, albatta, biz kutgandan ancha yaxshiroq natija edi.

Xulosa qilib aytganda, jamoaviy ish yanada yaxshi natijalarni olib kelishi mumkin. Yakka o‘zi ishlashni xush ko‘rvuchi talaba ijobiy jamoa a’zosiga aylanib, o‘zining yangi qobiliyatlarini ochib berishi yoki virtual dunyoni tark etib, haqiqiy do’stlarini topishi mumkin. Eng muhimmi, talabalar vaqtini aniq belgilash va mas’uliyatni sezish imkoniyatiga ega bo‘lganlarida, buni jamoa ichida ancha yaxshi his qilishadi. Talaba jamoaviy ishga qo‘shilgach, u o‘z maqsadlariga erishishi va o‘ziga ishonch hosil qilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, jamoaviy ish nafaqat o‘qish bo‘yicha yordam beradi, balki hayotda zarur bo‘lgan ko‘plab amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. “Teamwork that works”, Carol Marchetti, 2018-yil 16-aprel
2. Ingrid Benavides, Monterrey Texnologiya Instituti, 2022-yil 9-iyun
3. 2009, Heldref Publications

### **WEB-SAYTLAR:**

1. <https://www.timeshighereducation.com/campus/six-tips-helping-your-students-improve-their-teamwork-skills>
2. [https://www.coursera.org/enterprise/articles/improve-teamwork?utm\\_source=mobile&utm\\_medium=page\\_share&utm\\_content=article&utm\\_campaign=sharing\\_cta](https://www.coursera.org/enterprise/articles/improve-teamwork?utm_source=mobile&utm_medium=page_share&utm_content=article&utm_campaign=sharing_cta)